BOSQICHMA-BOSQICH ISLOHOTLAR STRATEGIYASINING SIYOSIY BARQARORLIKKA TA'SIRI

Mamatxanov Jasurbek
Namangan Davlat universiteti tadqiqotchisi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.23704043

Annotatsiya: Mazkur maqolada bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasining siyosiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi misolida ushbu strategiyaning amaliy natijalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bosqichma-bosqich islohotlar siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi.
Kalit so'zlar: siyosiy barqarorlik, bosqichma-bosqich islohotlar, davlat boshqaruvi, siyosiy legitimlik, ijtimoiy muvozanat.

Аннотация: В статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль стратегии поэтапных реформ в обеспечении политической стабильности. Также на примере опыта Узбекистана рассматриваются практические результаты реализации данной стратегии. Результаты исследования показывают, что поэтапные реформы являются важным фактором укрепления политической стабильности.
Ключевые слова: политическая стабильность, поэтапные реформы, государственное управление, политическая легитимность, социальный баланс.

Annotation: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of a gradual reform strategy in ensuring political stability. It also examines the practical results of implementing this strategy based on the experience of Uzbekistan. The findings of the study show that gradual reforms are an important factor in strengthening political stability.
Keywords: political stability, gradual reforms, public administration, political legitimacy, social balance.

KIRISH. Bugungi globallashuv sharoitida siyosiy barqarorlik masalasi har bir davlatning barqaror rivojlanishi, milliy xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Siyosiy tizimda barqarorlik mavjud bo'lgan sharoitdagina izchil islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda jamiyatda ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Shu bois siyosiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Islohotlar davlat va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, ularning mazmuni, sur'ati va amalga oshirilish shakli siyosiy tizim barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, keskin, puxta o'ylab chiqilmagan va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olmagan islohotlar ko'plab mamlakatlarda siyosiy beqarorlik, ijtimoiy norozilik va hatto davlat inqirozlariga sabab bo'lgan. Shu nuqtayi nazardan, bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasi siyosiy barqarorlikni saqlab qolgan holda modernizatsiyani amalga oshirishning eng maqbul yo'llaridan biri sifatida qaraladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng

murakkab tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yangi davlat va siyosiy tizimni shakllantirish vazifasi bilan yuzma-yuz keldi. Mamlakat rahbariyati tomonidan tanlangan bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasi siyosiy tizimni keskin silkinishlardan asrab qolish, davlat institutlarini mustahkamlash hamda jamiyatda ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga qaratildi. Ushbu yondashuv keyinchalik "O'zbek modeli" nomi bilan ilmiy va siyosiy muomalaga kiritildi. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda boshlangan yangi islohotlar bosqichi ham izchillik va bosqichma-bosqichlik tamoyiliga asoslandi. Davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar siyosiy barqarorlikni saqlagan holda amalga oshirildi. Bu esa mazkur strategiyaning zamonaviy sharoitda ham o'z dolzarbligini saqlab qolayotganini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi mamlakat oldiga mutlaqo yangi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni qo'ydi. Avvalgi markazlashgan boshqaruv tizimidan voz kechish, milliy davlatchilik asoslarini yaratish va suveren siyosiy tizimni shakllantirish zarurati yuzaga keldi. "Ma'lumki, O'zbekiston 1991 yili o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid, ma'muriy-buyruqbozlik, rejalitaqsimot tizimidan voz kechib, "o'zbek modeli" deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi".[1] Ushbu murakkab sharoitda mamlakat rahbariyati tomonidan tanlangan bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasi siyosiy barqarorlikni saqlab qolishda muhim rol o'ynadi. Dastlabki bosqichda asosiy e'tibor davlat mustaqilligini mustahkamlash va siyosiy tizimning huquqiy asoslarini yaratishga qaratildi. 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi eng muhim huquqiy poydevor bo'ldi. "Konstitutsiya — insonning sha'ni va qadr-qimmati, erkinligi, tengligi hamda adolatning kafolatidir!"[2] Konstitutsiya hokimiyatlar bo'linishi tamoyilini mustahkamlab, siyosiy institutlarning bosqichma-bosqich shakllanishiga imkon yaratdi. Mazkur davrda siyosiy islohotlar keskin emas, balki izchil amalga oshirildi. Avval davlat hokimiyati institutlari shakllantirildi, so'ngra ularning vakolatlari va faoliyati bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Bu jarayon siyosiy tizimda keskin uzilishlarning oldini olib, jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qildi.

O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi ilmiy adabiyotlarda "O'zbek modeli" nomi bilan tanilgan bo'lib, u besh asosiy tamoyilga tayangan holda ishlab chiqilgan."Bu tamoyillar iqtisodiyotni mafkuradan to'liq xoli qilish,qonun ustuvorligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi sifatidagi boshqaruvchilik rolini tan olish, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat ekani bilan alohida ajralib turadi".[3]Aynan bosqichma-bosqichlik tamoyili siyosiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Islohotlar jarayonida jamiyatning tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy-psixologik holati va milliy xususiyatlari hisobga olindi. Natijada, siyosiy va ijtimoiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi oldi olindi. "O'zbek modeli" doirasida siyosiy tizimni modernizatsiya qilish davlat tomonidan muvofiqlashtirildi. Davlat boshqaruvi institutlari isloh qilinar ekan, ularning uzluksiz faoliyati ta'minlandi. Bu siyosiy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga, islohotlarning samaradorligini ham oshirdi. Mazkur yondashuv O'zbekistonni postsovet hududidagi ayrim mamlakatlarda kuzatilgan siyosiy inqiroz va beqarorlik

holatlaridan asrab qoldi. Siyosiy tizimda barqarorlik saqlanib qolgani esa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratdi. Bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasi O‘zbekistonda davlat va huquqiy institutlarning izchil rivojlanishida yaqqol namoyon bo‘ldi. Avvalo, qonunchilik bazasi mustahkamlandi, so‘ngra huquqni muhofaza qilish va sud tizimi isloh qilindi. Sud-huquq tizimidagi islohotlar ham bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Sud tizimiga nisbatan ishonchning oshishi jamiyatda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarining qaror topishiga olib keldi. Parlament instituti ham izchil rivojlantirildi. Ikki palatali parlament tizimining joriy etilishi qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatini takomillashtirdi hamda hokimiyatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minladi. Bu esa siyosiy tizim barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari bosqichma-bosqich kengaytirildi. Hududiy boshqaruv tizimining mustahkamlanishi markaz va hududlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlab, siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatladi.

O‘zbekiston tajribasi ko‘rsatadiki, bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasi siyosiy barqarorlikni ta’minlashda davlat institutlari faoliyatining uzluksizligini kafolatlaydi. Dastlab, mustaqillikning dastlabki yillarida konstitutsiyaviy institutlar shakllantirildi, so‘ngra ular bosqichma-bosqich takomillashtirildi. Sud-huquq tizimi, parlament instituti va ijro hokimiyati organlarining mustahkamligi siyosiy tizim barqarorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Masalan, 2003–2017-yillarda sud tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar, xususan, fuqarolarning huquqiy himoyasini mustahkamlash va sud mustaqilligini oshirishga qaratilgan o‘zgartirishlar, mamlakatdagi siyosiy beqarorlik xavfini sezilarli darajada kamaytirdi. Shuningdek, parlament instituti faoliyatining bosqichma-bosqich takomillashtirilishi qonun chiqaruvchi hokimiyat samaradorligini oshirdi. Ikki palatali parlament tizimi joriy etilib, u orqali qonunlarni ishlab chiqish va ijro etish jarayoni tizimli ravishda boshqarildi. Bu siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi.

Bosqichma-bosqich islohotlar jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni ta’minlashda ham samarali mexanizm sifatida xizmat qildi. Jamiyatning turli qatlamlari yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitga asta-sekin moslashdi, ijtimoiy qarshiliklar va noroziliklar minimal darajada yuzaga keldi. O‘zbekiston tajribasida islohotlarning legitimligi mamlakat rahbariyati tomonidan uzluksiz izohlanib, ijtimoiy kommunikatsiya orqali xalq bilan muvofiqlashtirilgan. Masalan, 2017-yildan keyin boshlangan keng qamrovli iqtisodiy va huquqiy islohotlar dasturi, jumladan soliq tizimi va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, aholining siyosiy tizimga bo‘lgan ishonchini oshirdi va barqarorlikni mustahkamladi. Shuningdek, ijtimoiy siyosat, jumladan ta’lim, sog‘liqni saqlash va hududlarni rivojlantirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar, jamiyatning turli qatlamlarini qamrab olishga xizmat qildi. Bu esa siyosiy legitimlikni mustahkamlash va barqarorlikni oshirishga yordam berdi.

2017-yilda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan boshlangan yangi islohotlar bosqichi mamlakatning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim burilish nuqtasini tashkil etdi. Ushbu islohotlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirildi:

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar – tadbirkorlikni rivojlantirish, soliq tizimini soddalashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash.

Huquqiy va sud-huquq tizimi islohotlari – sud mustaqilligi va qonun ustuvorligini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish.

Davlat boshqaruvi islohotlari – markazlashuvni kamaytirish, hududiy boshqaruv vakolatlarini kengaytirish, shaffoflikni oshirish.

Shu o‘rinda, "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi"[4] mazkur islohotlarning normativ-huquqiy va konseptual asosini tashkil etdi."Ushbu Strategiyada davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosatni izchil davom ettirish kabi masalalar taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab olindi."[5] Ushbu hujjat davlat siyosatining tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta’minlab, islohotlar jarayonida muvofiqlashtiruvchi mexanizm vazifasini bajardi.Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan siyosiy islohotlar davlat boshqaruvi institutlarining samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Xususan, davlat organlari faoliyatida ochiqlik va jamoatchilik bilan muloqot tamoyillari kuchaytirildi, elektron hukumat tizimi joriy etildi hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlari soddalashtirildi. Bu holat fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish va siyosiy tizimga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.Shuningdek, sud-huquq tizimidagi islohotlar siyosiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Sudlarning mustaqilligini kuchaytirish, protsessual kafolatlarni kengaytirish va korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish darajasi oshirildi. Qonun ustuvorligining mustahkamlanishi jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qildi.Bu islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilgani sababli, ular siyosiy barqarorlikni saqlab qolish bilan birga, davlat institutlari samaradorligini oshirdi. Masalan, 2019–2021-yillarda qabul qilingan qonunchilik va normativ hujjatlar davlat organlarining faoliyatini takomillashtirdi, fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirdi va ijtimoiy ishonchni mustahkamladi.Natijada, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda yangi sifat bosqichi shakllandi. Davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligi oshib, jamoatchilik nazorati institutlari bosqichma-bosqich rivojlana boshladi. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish amaliyotining kengaytirilishi fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirdi hamda qaror qabul qilish jarayonlarida muvozanatni ta’minlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, amalga oshirilgan islohotlar siyosiy tizimda keskin o‘zgarishlarga yo‘l qo‘ymasdan, mavjud barqarorlikni saqlab qolish imkonini berdi. Bosqichma-bosqich yondashuv ijtimoiy keskinlikning oldini olib, siyosiy jarayonlarning evolyutsion yo‘l bilan rivojlanishini ta’minladi. Bu holat, ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va huquqiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, davlat institutlarining samaradorligi oshishi siyosiy boshqaruv sifatining yaxshilanishiga olib keldi. Qarorlarni qabul qilishda huquqiy asoslarning mustahkamlanishi, ijro intizomining kuchaytirilishi hamda davlat xizmatchilarining professional darajasini oshirishga qaratilgan choralar siyosiy barqarorlikni institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatladi. Shu bilan birga, bosqichma-bosqich yondashuv siyosiy tizimda kutilmagan ziddiyatlar va beqarorliklarni oldini oldi. Bu O‘zbekiston tajribasini boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda noyob va samarali qiladigan jihatdir.

Xulosa. Siyosiy barqarorlik davlat institutlari mustahkamligi, hokimiyatning legitimligi va jamiyatdagi ijtimoiy muvozanat bilan uzviy bog‘liq. Bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasi esa bu omillarni saqlab qolgan holda modernizatsiyani amalga oshirish beradi. O‘zbekiston tajribasi bu yondashuvning samarali ekanini ko‘rsatadi. Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillardan boshlangan bosqichma-bosqich islohotlar siyosiy tizimni keskin silkinishlardan saqladi, davlat institutlarining izchil rivojlanishini ta’minladi va jamiyatda ijtimoiy totuvlikni mustahkamladi. 2017-yildan keyingi yangi islohotlar ham aynan bosqichma-bosqichlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, siyosiy barqarorlikni oshirishda samarali vosita bo‘ldi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, siyosiy barqarorlikni ta’minlash uchun islohotlar keskin emas, balki izchil, rejalashtirilgan va ijtimoiy-psixologik holatni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Shu tamoyil boshqa davlatlarda ham islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun nazariy va amaliy model sifatida foydalanishi mumkin. Umuman olganda, tadqiqot O‘zbekistonning bosqichma-bosqich islohotlar strategiyasi siyosiy barqarorlikni mustahkamlashdagi muhim ahamiyatini ilmiy asosda tasdiqladi va bu strategiyaning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish—mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.19-jild Toshkent «O'zbekiston» 2011 B-20.
2. Газета. Народное слово 8 декабря 2025 года, №254 (9098)
3. Islom Karimov. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish—yorug' kelajagimizning asosiy omilidir.Toshkent—«O'zbekiston»—2013 B-4.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2017-yil 7-fevral PF-4947-son—(O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish beshta bo‘yicha Harakatlar strategiyasi 2017-2021-yy.)
5. ЎЗБЕКИСТОН ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МУСТАҚИЛЛИГИНИНГ ЙИГИРМА ОЛТИ ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНГАН ТАНТАНАЛИ МАРОСИМДАГИ НУТҚИ. ТОШКЕНТ ҲАҚИҚАТИ 2017 йил 1 сентябрь №72 (13020)
6. www.president.uz
7. www.lex.uz